
Usmonli imperiyasi, Usmonlilar davlati (Yevropada Ottoman imperiyasi deb atalgan) — Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimda usmonlilar sulolasi boshqargan davlat (1299— 1922). Usmonli imperiyasiga



Usmon I asos solgan.



Poytaxti	Söğüt (1299—1329) Bursa (1329—1365) Edirne (1365—1453) Konstantinopol (Istambul) (1453—1922)
Til(lar)i	Usmonli turk Arab Fors
Dini	Islom (sunnat tarmog‘ida)
Maydoni	7 607 380 km²
Aholisi	35 350 000
Boshqaruv shakli	monarxiya
Sulola	Usmonlilar
Sulton, Xalifa	
- 1281—1326	Usmon-I

Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliyg‘arbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Ko‘niya sultonligiga tobe kichik bir beklik (beylik) shaklida tashkil topgan. Bu beklikning ilk hukmdori Erto‘g‘rul bo‘lsa ham, uning o‘g‘li — Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli imperiyasi nomini olib, o‘rta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Usmon I va uning o‘g‘li Urxon bek (bey) unvonini qabul qilgan bo‘lsa, Urxonning o‘g‘li Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan.

Usmon G‘oziy davridayoq qo‘shni Vizantiya imperiyasiga qarshi bir qancha harbiy yurishlar qilinib, Qoracha Hisor va Yor Hisor qal’alari, Bursaning atroflari egallangan.

Uning o‘g‘li Urxon G‘oziy Vizantiyaning Bursa, Nikeya, Nikomediya shaharlarini istilo qilib, XIV asrning o‘rtalaridayoq Qora dengiz va Marmar dengizi sohillariga chiqqan. Bu

davrda usmonli turklar (ular o‘g‘uz turklarining qay urug‘iga mansub bo‘lgan) Dardanell bo‘g‘ozidan o‘tib, Yevropa hududiga kirishgan. 1356-yilda Bolqonni zabt etish tugallanib, Yevropa hududida yangi Rum eli (Rumeliya) viloyati ta’sis etilgan. Aynan shu paytdan Usmonlilar davlatini saltanatga aylanish jarayoni boshlangan. 1360-yil yanicharlar (turkcha: yangi cherik) — maxsus piyoda qo‘shin tashkil qilingan.

Davlatning dastlabki poytaxti Melangiya, 1326— 1362-yillarda Bursa bo‘lgan. Sulton Murod I, 1362-yilda poytaxtni Bursadan Edirna (Adrianopol)ga ko‘chirgan. Uning hukmronlik davrida Yevropada yangi hududlar zabt etilgan. Kosovo maydonida bo‘lgan jang (1389)da serblar maglubiyatga uchragach, Serbiya Usmonli imperiyasiga qo‘shib olindi. Sulton Boyazid I Yildirim Bolgariyaning poytaxti Tirnovo (1393)ni egallab, Nikopol ostonalarida salibchi ritsarlarning birlashgan 60.000 kishilik qo‘shinini maglubiyatga uchratdi (1396) va Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni qamal qilishga kirishdi. U Bolgariya, Valaxiya,

Makedoniya, Fessaliyani o‘z davlati tarkibiga kiritdi. Biroq, 1402-yilda bo‘lgan Anqara jangi Amir Temur qo‘shinidan Usmonli imperiyasi ning maglubiyatga uchrashi Vizantiya imperiyasini mukarrar halokatdan saqlab qoldi. Sulton Mahmud I va Murod II hukmronliklari davrida qo‘ldan ketgan hududlar qaytarib olingan. Adolatli va insofli hukmdor sifatida nom chiqargan Murod II G‘oziy 1422-yil Konstantinopolga hujum qiladi. Varna yaqini (1444-yil 10-noyabr) va Kosovo maydoni (1448-yil 17— 19 dekabr)da chex-mojarlar qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratib, 1449—50-yillarda Albaniya ustiga 2 marta yurish qilgan.

Murod II ning o‘g‘li Mahmud II Fotih turk qo‘shinlariga shaxsan o‘zi qo‘mondonlik qilib, jahongirlik siyosatini olib borgan. U Sharqiy Rim imperiyasi — Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni 40 kunlik qamaldan so‘ng egallab (1453-yil 29-may), Vizantiya imperiyasini tugatgan. Konstantinopol turkcha Istanbul nomi bilan atalib, poytaxt bu yerga kuchirilgan. Bu g‘alabadan sung Mahmud II Fotih Bolqon va Markaziy Yevropa

mamlakatlarini zabt etishga kirishgan. Serbiya (1459), Moraviya (1460), Bosniya (1463), Valaxiya (1476), Albaniya (1479) Trapezund — Trabzon (1461) egallangan. Qrim xonligi tobe davlatga aylantirilgan (1475). Oq qo‘yunli davlati hukmdori Uzun Hasanga qarshi harbiy harakatlar kuchaytirilgan. Yevropaning Italiya, Olmoniya, Avstriya kabi davlatlari hududlarini egallash rejasi tuzilib, amaliy harakatga o‘tilgan. Bu davrda harbiy va ma’muriy boshqaruv sohasida katta islohotlar o‘tkazilib, ulkan saltanatni mustahkamlash choralari ko‘rilgan. Ayniqsa, adabiyot, san’at va me’morchilik gullab-yashnagan.

Sulton Boyazid II, Salim I va Sulaymon I hukmronlik qilgan davrlarda saltanat haddan tashqari kuchaygan. Xususan, Salim I Yovuz Eron safaviylari shohi Ismoil I qo‘shinini yanchib tashlaydi (1514-yil 23-avgust). Iroq, Shom (Suriya), Falastin, Misrni egallab, Qohiraga kiradi (1517). Bu paytda Misrdan tashqari Shimoliy Afrikaning Jazoir hududi, shuningdek, Bolqon, Arabiston, Janubiy-

Sharqiy Anadolu ham Usmonli imperiyasi tarkibiga kirgan. Halabda bo‘lgan juma namozi (1516-yil 28-avgust)da sulton Salim I ga "ikki muqaddas shahar xizmatchisi" faxriy unvoni berilib, xalifa sifatida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan (Usmonli sultonlar shu kundan e’tiboran to 1924-yilgacha ayni paytda islom olamining xalifasi ham hisoblangan). Sulton Sulaymon I ham jahongirlik siyosatini davom ettirgan. Mojariston bosib olingach, turklar Venani 1 marta qamal qilishgan (1529). Polsha va Ukrainaga qo‘shin jo‘natilib, Egey dengizidagi Rodos va boshqalar orollar ishg‘ol qilingan. Sulaymon I Qonuniy "Muqaddas Rim imperiyasi"ga qarshi kurashish uchun Fransiya qiroli Fransisk I bilan birinchi fransuz-turk siyosiy shartnomasi va savdo bitimini imzolagan (1535). 1556-yilga kelib Usmonli imperiyasiga Kichik Osiyo hududi, G‘arbiy Gurjiston, G‘arbiy Armaniston, Livan, Suriya, Iroq (Bag‘dod bilan birga), Falastin, Hijoz, Yaman, Misr, Tripoli, Jazoir, Yunoniston, Bulg‘oriston, Mojariston, Serbiya, Bosniya, Valaxiya, Transilvaniya, Moldaviya, Qrim kirgan. Bu paytda u jahondagi eng qudratli saltanatlardan biri

hisoblangan. Saltanatning ulkan hududi 3 qit’a: Yevropa, Osiyo, Afrikaning katta kismini egallagan bo‘lib, uning maydoni 8 mln. km²ga yetgan. 16 asrda turklarning kuchli dengiz floti butun O‘rta dengiz havzasini nazorat qilib turgan.

Sulton Murod III xukmronligi davrida Kipr oroli bo‘ysundirilgan. Bu paytda Gibraltar bo‘gozidan Fors qo‘ltig‘igacha, Dunaydan Nil sohillarigacha bo‘lgan hudud sultonlikka qaragan.

Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Yevropa mamlakatlari o‘zaro ittifoq tuzib, Usmonli imperiyasiga qarshi kurashga chog‘langanlar. Vena atrofida bo‘lgan 2 jangda turk qo‘shini Avstriya, Olmoniya, Polshaning birlashgan armiyasidan yengilgan (1683-yil). Muntazam davom etib turgan Rossiya -Turkiya urushlari (1676-1681, 1684-1699, 1710-1711, 1768-1774, 1787-1791, 1807-1812, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878, 1914-1916 va

boshqalar) oqibatida Usmonli imperiyasi asta-sekin zaiflashib borgan. Hatto bu paytda vahhobiylarning ta’siri kuchayib, ular inglizlarning yordamida Fors qo‘ltig‘idagi El-Xasa (1792), Karbalo (1801), Makka va Madina (1803—1806)ni egallab, turklarga qarshi qirg‘in uyushtirgan.

Salim III va Mahmud II hukmronliklari davrida saltanatni parchalanib ketishdan saqlab qolish uchun islohotlar o‘tkazilgan. Sulton Abdulmajid yana islohotlar (Tanzimat) o‘tkazish (1839) orqali, bir tomondan, sultonlik inqirozini to‘xtatishga, ikkinchi tomondan, yangi turk ziyolilarini (ular o‘zlarini yangi usmonlilar deyishgan) shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu paytda bo‘lgan Qrim urushida Turkiya o‘zining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan g‘olib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqeini qayta tikladi. Tanzimat va 1876-yilda qabul qilingan dastlabki konstitutsiya sulton Abdulhamid II tomonidan bekor qilingach (1878), mamlakatda istibdod davri boshlangan. Bu davrda sultonlik Yevropa davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaram

bo‘la boshlagan. 19 asr oxiri — 20 asr boshlarida "Ittihod va taraqqiy" partiyasi a’zolari mamlakatda konstitutsion monarxiya o‘rnatish uchun qat’iy harakat qilishgan (Turkiya).

1922-yil 1-noyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi sultonlikni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Mustafo Kamol (Otaturk) bosqinchilarga qarshi ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qilib, sultonlikning asosan turklar yashaydigan hududi — Kichik Osiyo va qisman Yevropada 1923-yil 29-oktyabrda Turkiya jumhuriyatiga asos soldi.

Usmoililar davlatining O‘rta Osiyo xonliklari bilan o‘zaro munosabatlari

XVI — XVIII asrlarda Tahrirlash

Usmonli imperiyasi, 1299-1683

Imperiyaning yuksalishi Tahrirlash

XVI asr boshlarida butun imperiya viloyatga, viloyatlar esa sanjoq (tuman)larga bo‘lingan edi. Viloyatlarni vali, sanjoqlarni esa sanjoqbey boshqarardi. Imperiyaning asosiy tayanchi uning qo‘shini edi. Qo‘shinni yer egalarining lashkarlari tashkil etardi. Sulton harbiy majburiyat evaziga yer-suv taqsimlab berardi. Harbiy majburiyat evaziga ajratilgan katta-katta yer egalari zoimlar va beylar, ulardan maydaroq yer egalari esa tumorilar va sipohiylar deb atalgan. Ularga harbiy harakat vaqtida sulton farmon bergan hamonoq, yerlarining katta-kichikligiga qarab belgilab qo‘yilgan miqdordagi qurolli dehqonlar bilan belgilangan joyga yetib kelish majburiyati yuklangan edi. Bundan tashqari, imperiyaning doimiy qo‘shini — yanicharlari, shuningdek, kuchli harbiy-dengiz floti ham bo‘lgan. Bu omillar Usmonli turklar sultonlariga keng ko‘lamda bosqinchilik urushlari olib borish imkonini bergan. Bunday urushlar natijasida Usmonli turklar davlatining ulkan imperiyaga aylanganligi Sizlarga VII sinf „Jahon tarixi“ darsligidan ma’lum. Imperiya XVI asrda ham bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Bu davrda Eron imperiyaning Osiyodagi eng yirik

raqibiga aylangan edi. Sulton Salim I 1514-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinini tor-mor etdi. Bu g‘alaba sultonga shohning ittifoqchisi Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashga yo‘l ochdi. 1516-yilda yo‘l-yo‘lakay Suriya va Falastinni bosib oldi. 1517-yilda esa Misr poytaxti Qohira shahri egallandi. Imperiya nafaqat Osiyo va Yevropada, hatto Afrikada ham mustamlakalarga ega bo‘ldi.Imperiya hududining kengayishi yirik savdo yo‘llarining ham Turkiya qo‘liga o‘tishiga olib keldi. Bu omillar imperiya markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada kuchayishini ta’minladi. Oqibatda Turkiyaning xalqaro ta’sir-e’tibori, Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlari taqdiridagi o‘rni yanada ortdi.

Turkiyada Jumhuriyat kuni. Uch qit’ani birlashtirgan Usmonli saltanati qanday quladi?

29-oktabr Turkiyada Jumhuriyat kuni sifatida nishonlanadi. Bu sana Usmonli saltanatining tugashi va Turkiya Respublikasining tashkil topishi bilan bog‘liq. “Daryo” kolumnisti G‘ayrat Yo‘ldosh ushbu sana munosabati

bilan tarixdagi eng buyuk imperiyalardan biri bo‘lmish Usmonli saltanati hamda Turkiya Respublikasining tashkil topishi haqida fikr yuritadi.

Usmonlilar saltanati tarix zarvaraqlarida Yevrosiyo va Afrikaning shimoliy qismida qariyb yetti asr muvaffaqiyat bilan hukm surgan va ana shu hududlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan buyuk imperiya edi. Bu imperiyaning biz uchun muhim jihati shuki, uni o‘zbeklarga qardosh bo‘lgan turklar tuzgan. Qolaversa, bu saltanat hukmdorlari ham, asosiy aholisi bo‘lgan turklar ham bundan olti asr avval sulton Boyazid va Movarounnahr hukmdori Temur o‘rtasida kelib chiqqan urushni aytmasa, ikki daryo oralig‘idagi xalqlarga ijobiy munosabatda bo‘lgan. Bu holat bugungacha davom etyapti: aksariyat turkiyaliklar o‘zbeklar deganda qardoshini tushunadi va “O‘zbekiston ota yurtim” deydi.

Tarixdan bilamiz, ko‘p saltanatlar, imperiyalar ma’lum vaqt rivojlanish,

kengayish bosqichiga chiqib, so‘ng qandaydir sabablar bilan parchalanib, yo‘q bo‘lib ketgan. Shu jumladan, Usmonlilar imperiyasining paydo bo‘lishi, hududining misli ko‘rilmagan darajada kengayishi va so‘ngra zaiflashishi bosqichlari bor. Bu davlat o‘z davrida Yevropa hukmdorlari yuragiga g‘ulg‘ula va qo‘rquv sola olgan edi. Eng kengaygan paytida imperiya hududi sharqda Kaspiy dengizidan g‘arbda Atlantika okeanigacha, janubda Hind okeanidan shimolda Germaniya, Polsha, Ukraina va Rossiya hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan.



Foto: Wikipedia

Turklar saltanati yiqitilgan va mamlakatda respublika boshqaruvi e’lon qilingan bo‘lsa ham, ular o‘z davlatchiligini boshqacha nom bilan saqlab qoldi. To‘g‘ri, davlat ko‘plab hududlaridan ajraldi. Uning qo‘l ostida bo‘lgan hududlar o‘z mustaqil davlatlarini tuzdi. Ammo, eng muhimi, turklar matonat bilan mustaqilligini saqlab qoldi. Hanuzgacha Turkiya dunyoda obro‘-e’tiborga ega davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tarixchilar Usmonli saltanati tarixini to‘rt davrga bo‘ladi:

- qurilish davri (1299–1453);

- yuksalish davri (1453–1683);

- orqaga ketish davri (1683–1792);

- yiqilish davri (1792–1920).

Turkiy elatlar Kichik Osiyo hududiga XI asrdan koʻchib kela boshlagan. Ilk davlatni oʻgʻuz-turkman qabilalari yoʻlboshchilari – aka-uka Toʻgʻrulbek va Chagʻribek tuzgan. Ular saljuqiylar sulolasiga asos solgan. Bu qabilalar Sirdayo boʻylarida yashayotgan paytlarida islom dinini qabul qilgan.

Saljuqiylar sultoni Alp Arslon 1071-yilda Malazgirt jangida Vizantiya imperatori Roman Diogen armiyasini magʻlubiyatga uchratganidan soʻng saltanat yanada kengaydi. Sulton Malikshoh (1072–1092) davrida esa saltanat gullab-yashnadi. Sulton Malikshohning oʻlimidan keyin saljuqiylar saltanati parchalanib, boʻlinib ketdi. Suriya, Iroq, Xuroson, Kirmon va Onadoʻlu kabi kichik-kichik mustaqil bekliklar paydo boʻldi. XIII asr boshlarida moʻgʻullarning oyogʻi Kichik Osiyoga ham yetdi; ular tarqoq saljuq bekliklarini yengib, bu yerda ham oʻz hukmronliklarini oʻrnatdi. XIII asr oxirlariga kelib moʻgʻullar birmuncha zaiflashdi va bir qancha mustaqil turk beyliklari (bekliklari) tashkil topdi. XIV asr boshlarida Usmon boshchiligidagi beylik boshqa tarqoq


beyliklarni birlashtirib, markazlashgan kuchli davlat — Usmonli saltanatini barpo etdi. Shundan so‘ng bu davlat Usmonli saltanati nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Hukmronligini Usmonli beyligidan boshlab, uning katta bir saltanatga aylanishiga sabab bo‘lgan Usmonbey o‘g‘uz turklaridan, bo‘zo‘q shoxobchasidan, qayi urug‘idan edi.

Usmonli saltanati tashkil topib, kuchayar ekan, Vizantiya imperiyasi chalajon holida zo‘rg‘a yashayotgan edi, ammo turklar hali uning poytaxti Konstantinopolni qo‘lga kirita olmagandi. Shunday bo‘lsa ham, turklar Osiyoni Yevropadan ajratib turuvchi Marmar bo‘g‘ozidan Yevropa qit’asiga o‘tdi va birin-ketin Yevropa janubida, Bolqon yarim orolidagi katta hududlarni o‘zlariga bo‘ysundirdi. Vizantiya imperiyasi amalda faqat Konstantinopolda saqlanib qoldi.

Anqara jangida Boyazid Temurga yutqazishi turklarning Konstantinapolni zabt etishini va

Yevropaning ichkarirog‘iga kirib borishini biroz ortga surdi. Oradan biroz o‘tib, 1453-yil 29-mayida Usmonli turklar Sulton Mehmed II Fotih boshchiligida Konstantinopolni (hozirgi Istanbulni) zabt etdi va Vizantiya



imperiyasini tarix qa’riga uloqtirib yubordi.

Foto: Wikipedia

XVII asr o‘rtalarigacha Usmonlilar saltanati faqat kengayib bordi. Mamlakat hududi sharqdan Kaspiy dengizidan, g‘arbda Atlantika okeanigacha yetib bordi. Afrikaning

shimoliy qismi to‘lig‘icha, Yevropaning sharqiy qismidagi katta hududlar turklar qo‘l ostida edi. Qora dengiz Usmonlilarning ichki dengizi bo‘lib qoldi. O‘rta yer dengizi, Yevropa davlatlari bo‘lmish Italiya, Fransiya va Ispaniya sohillarini aytmaganda, to‘laligicha turklar nazoratiga o‘tdi.

Biroq XVII asrning oxirgi choragidan boshlab Usmonlilarning harbiy va iqtisodiy qudrati zaiflasha boshladi.

1683-yilda Vena shahri yaqinidagi jangda turklar qo‘shini Polsha, Avstriya va Germaniya birlashgan qo‘shinlaridan yengildi. 1684-yilda esa Avstriya, Polsha, Venetsiya (1686-yildan Rossiya) Usmonlilarga qarshi “Muqaddas ittifoq” tuzdi va o‘rtada urush boshlab, turklardan ancha hududlarni tortib olishga muvaffaq bo‘ldi.

Albatta, Usmonlilar ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi. Jumladan, turklar 1711-yilda Prut jangida Pyotr I boshchiligidagi rus qo‘shinini

tor-mor keltirdi. Qurshovdagi Pyotr I va’dalar evaziga qutulishga muvaffaq bo‘ldi.

Ammo baribir turklar yevropaliklardan har jabhada ortda qolib, janglarda birin-ketin yutqaza boshladi. XVIII asr yo‘qotishlarga yanada boyroq bo‘ldi.

Mamlakatni 1789–1807-yillarda boshqargan sulton Salim III saltanatda islohotlar o‘tkazishga urindi. “Yangi nizom” (“Nizomi jadid”) deb nomlangan bu islohotlar natijasida davlat boshqaruvi, moliya masalalari, savdo sohasi, qishloq xo‘jaligi, ilm-fan va boshqa sohalarda yangiliklar joriy etishga urinildi. Ammo bu islohot yanicharlar – gvardiya qarshiligiga uchradi. Yanicharlar isyon ko‘tardi va 1807-yil 15-mayda Salim III ni taxtdan ag‘darib tashladi.

Salim III dan keyin ko‘plab hukmdorlar o‘tdi, lekin ularning birortasi imperiyaning oldingi mavqeini tiklay olmadi. Aksincha, o‘z

hududlarini yo‘qotib boraverdi. Saltanat XIX asr o‘rtalariga kelib nihoyatda holdan toydi.

Sulton Sulaymon.



Foto: Wikipedia

Tinchlik davrida Usmonlilar saltanatida Yevropa madaniyatiga, iqtisodiyotiga qiziqish kuchaydi. Saltanatda ilk banklar ochildi. Yevropadan sanoat kirib kela boshladi. Kitob, gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. Sulton Abdulaziz davrida (1861–1876) ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash va Yevropa davlatlaridan andoza olib konstitutsiyaviy tuzum o‘rnatish tarafdori bo‘lgan Yosh turklar harakati rivojlana boshladi.

1876–1908-yillarda mamlakatni boshqargan sulton Abdulhamid II taxtga chiqqan yili, 1876-yil 23-dekabrda konstitutsiyaga o‘xshab ketadigan Asosiy qonunni e’lon qildi. Bu qonun Turkiayning ilk konstitutsiyasi hisoblanadi.

Ammo saltanatda muammolar yetarli edi, konstitutsiya qabul qilinishi ham muammolarni hal qila olmadi.

1877–1878-yillarda yana bir Rossiya – Turkiya urushi bo‘lib o‘tdi va u Turkiyaning yengilishi bilan yakun topdi. Shu mag‘lubiyatdan so‘ng Usmonlilar Bolqon yarim orolidagi hududlaridan batamom ayrildi. Buning ustiga, turklarning Shimoliy Afrikadagi hududlarini yevropaliklar bosib ola boshladi: 1881-yilda Fransiya Tunisni, 1882-yilda Buyuk Britaniya Misrni bosib oldi. Marokash va Jazoir ham qo‘ldan ketdi.

Birinchi jahon urushida Usmonlilar 1914-yil 30-oktabrda Germaniya tarafida turib urushga qo‘shildi. Urushda Germaniya yengilganidan so‘ng, 1917–1918-yillarda Ittifoqchilar Usmonlilar imperiyasining Yaqin Sharqdagi hududlarini birin-ketin bosib oldi. Suriya va Livanni Fransiya, Falastin va Iordaniyani Buyuk Britaniya egalladi.

Batamom holdan toygan Usmonlilar saltanati 1918-yil 30-oktabrda Birinchi Jahon urushida g‘olib chiqqan Antanta davlatlariga taslim bo‘ldi.

Buyuk Britaniya va Fransiyadan iborat Ittifoqchilar Turkiyani ishg‘ol qildi. Turk xalqi milliy ozodlik harakatini boshladi. Turkiyada Ozodlik urushi (Kurtuluş savaşı) deb nomlangan harakatga Otaturk nomini olgan sarkarda Mustafo Kamol poshsho boshchilik qildi. Turklar mamlakat ozodligi uchun oyoqqa qalqdi. 1920–1921-yillarda bo‘lib o‘tgan janglarda turklar Gretsiya qo‘shinlari ustidan g‘alaba qozondi.



1918-yil 30-oktabrda Mudros kelishuvi imzolandi. Oradan ikki yil o‘tib, 1920-yilda Gretsiya bilan Sevr tinchlik bitimi tuzildi. Bu bitimga ko‘ra, yunonlar tomonidan 1919-yil 15-mayda bosib olingan Izmir shahri Gretsiyaga o‘tishi kerak edi. Yuqoridagi ikki bitimni Gretsiya ratifikatsiya qildi, ammo milliy ozodlik harakati ishtirokchilari bosimi bilan Usmonlilar saltanati ratifikatsiya qilmadi va bitimlar kuchga kirmadi.

Sulton Abdulhamid II.

Foto: Wikipedia

Umuman olganda, 1918–1922-yillar Turkiya uchun nihoyatda og‘ir kechdi. Qo‘l ostidagi hududlarni boy bergani yetmaganday, Usmonlilar endi Turkiyaning o‘zini ham zo‘rg‘a himoya qilishdi.

Ana shu holatda o‘rtaga Mustafo Kamol Otaturk chiqdi va 1922-yil 9-sentabrda bo‘lib o‘tgan og‘ir janglarda g‘alaba qozonib, mamlakatdan yunonlarni quvishga muvaffaq bo‘ldi. Buyuk Millat Majlisi qabul qilgan qonunga ko‘ra, 1920-yil 16-martidan boshlab saltanat bekor qilindi va hukmdorlik bilan xalifalik bir-biridan ajratildi. Shundan so‘ng xalifalik hokimiyatga aralasha olmaydigan alohida maqom bo‘lib qoldi. Sulton Abdulaziz o‘g‘li Abdulmajid afandi Buyuk Millat Majlisi tomonidan xalifalikka saylandi va 1924-yil 3-martgacha shu maqomda qoldi. 1924-yil 3-mart kuni Mustafo Kamol Otaturk tomonidan xalifalik bekor qilindi.

1922-yil 1-noyabrda Mustafo Kamol Otaturk boshchiligidagi Buyuk Millat Majlisi Turkiyada sultonlikni bekor qilish va xalifalikni davlatdan ajratish to‘g‘risida qonun qabul qildi. 1923-yil 24-iyul kuni imzolangan Lozanna sulh shartnomasiga ko‘ra Turkiyaning chegaralari belgilandi, Buyuk Britaniya va Fransiya boshlichiligidagi Yevropa davlatlari tomonidan Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy mustaqilligi tan olindi. O‘sha yili kuzga borib, 29-oktabr kuni Buyuk Millat Majlisi tomonidan Turkiya respublika deb e’lon qilindi. Poytaxt Istanbuldan Anqaraga ko‘chirildi.

*** * ***

Usmonlilar saltanati 1299-yili Onado‘luda, Marmara vohasida bir beklik bo‘lib boshlanib, buyuk imperiya holida XX asr boshida, 1920-yilda yiqitildi.

Uzoq asrlar yashagan ko‘plab imperiyalar qatori Usmonlilar qariyb 700 yillik faoliyati mobaynida Yevrosiyo va Afrika qit’asiga ta’sir ko‘rsatdi hamda bu hududlar rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Usmonlilar imperiyasi kengayishi ortidan turklar oyog‘i qayerga yetgan bo‘lsa, o‘sha hududda shaharlar tiklandi, masjid, madrasalar qurildi, ariq va kanallar qazilib, suv chiqarildi. Bugungi kunda Shimoliy Afrika va Yevrosiyoning turli mamlakatlarida turk hukmronligi davridan saqlanib qolgan



a qo‘shgan
uhimi,
unyoda
irasiga ega
davlat Katta
’zo
gi muhim
rezidenti va
atdan bugun
fkor
ommasining e’tiborida turadi.

Mustafo Kamol Otaturk.

Foto: Wikipedia

O‘rta asrlarda Yevrosiyoda eng qudratli imperiyalardan biri bo‘lgan Usmonlilar nega XVIII asrdan tanazzulga yuz tuta boshlagani, harbiy va iqtisodiy jihatdan qoloqlashgani va oxir-oqibat parchalanib ketgani haqida turli fikrlar bildiriladi. Buning sabablari ko‘p. Menimcha, bunga eng asosiy sabab turklarda ilm-fan va sanoat rivojlanishi ortda qolganidir. Turklarning juda katta hududlarini egallashi, O‘rta Yer dengizining sharqiy va janubiy sohillariga yevropalik savdogarlarini yaqinlashtirmay qo‘ygani sababli Uzoq Sharqda joylashgan Xitoy, ziravorlar yurti Hindiston bilan savdo-sotiq qila olmay qolgan yevropaliklar Hindiston va Xitoyga boshqa dengizlar orqali yo‘l qidirishga majbur bo‘ldi. Buning natijasida Xristofor Kolumb Amerika qit’asini kashf etdi, Vasko da Gama Hindistonga dengiz yo‘lini topdi va shu tariqa Yevropa savdogarlari turklarga tegishli hududlar orqali savdo qilmay qo‘ydi.

Oqibatda imperiyaga tushadigan boj salmog‘i kamayib ketdi. Yevropa esa, aksincha, kashf etilgan Yangi dunyo ortidan nihoyatda boyib ketdi; XVIII asrda Yevropada sanoat inqilobi yuz berdi. Holat shu darajaga yetdi-ki, bir paytlar Yevropadan boj olib yurgan Usmonlilar iqtisodiy taraqqiyotda Yevropadan sezilarli ortda qola boshladi.

- Nomi[1] Yashagan yillari[1]

  Hukmronlik yillari[1]

1. Usmon I 1258—1324 1299—1324
2. O‘rxon I 1288—1326 1324—1326
3. Murod I (Usmonlilar imperiyasi) 1326—1389 1362—1389
4. Boyazid I Yildirim 1360—1403 1389—1402
5. Murod II (Usmonlilar imperiyasi) 1404—1451 1421—1444
6. Mehmed II Fotih 1432—1481 1444
7. Boyazid II Darvish 1447—1512 1481—1512
8. Salim I Yovuz 1470—1520 1512—1517

9. Sulaymon I Qonuniy (Muhtasham) 1494 — 1566 1520—1566

10. Salim II Mast 1524 — 1574 1566—1574

11. Murod III 1546 — 1595 1574—1595

12. Mehmed III 1568 — 1603 1595—1603

13. Ahmad I 1590 — 1617 1603—1617

14. Mustafo I 1592 — 1639 1617—1618

15. Usmon II 1604 — 1622 1618—1622

16. Mustafo I 1592 — 1639 1622—1623

17. Murod IV 1612 — 1640 1623—1640

18. Ibrohim I 1615 — 1648 1640—1648

19. Mehmed IV Ovchi 1642 — 1693 1648—1687

20.	Sulaymon II	1642 — 1691	1687—1691
21.	Ahmad II	1643 — 1695	1691—1695
22.	Mustafo II	1664—1703	1695—1703
23.	Ahmad III	1673—1736	1703—1730
24.	Mahmud I	1696—1754	1730—1754
25.	Usmon III	1696—1757	1754—1757
26.	Mustafo III	1717—1774	1757—1774
27.	Abdulhamid I	1725—1789	1774—1789
28.	Salim III	1761—1807	1789—1807
29.	Mustafo IV	1779—1808	1807—1808
30.	Mahmud II	1784—1839	1808—1839
31.	Abdulmajid I	1823—1861	1839—1861

32. Abdulaziz I 1830—1876 1861—1876

33. Murod V 1840—1904 1876

34. Abdulhamid II 1842—1918 1876—1909

35. Mehmed V Rishod 1844—1918 1909—1918

36. Mehmed VI Vohid 1861—1926 1918—1922

37. Abdulmajid II 1868—1944 1922—1924

Usmonli imperiyasi Vaziri a’zamlari

- XIV asrda

- Ismi /Kelgan vaqti/ Ketgan vaqti/Millati

- Oloviddin posho/ 1320 1331/ turk
- Nizomiddin Ahmad posho 1331 1348 turk
- Hoji posho1348 1349 turk
- Sinoniddin Faqih Yusuf posho 1349 1364 turk
- Qora Halil posho 1364 1387 turk
- Chandarli Ali posho 1387 1406 turk

- XV asrda

- Ismi Kelgan vaqti Ketgan vaqti Millati
- Imomzoda Halil posho 1406 1413 turk
- Boyazid posho 1413 1421 turk
- Chandarli Ibrohim posho 1421 1439 turk
- Hoji Mehmed Nizomiddin posho 1429 1439 turk
- Chandarli Halil posho 1439 1453 turk
- Mehmed posho 1453 1456 yunon

- **Angelovich Mahmud posho 1456 1468 serb**
- **Rumiy Mehmet posho 1468 1469 yunon**
- **Isxoq posho 1469 1472 serb yoki bosniyali**
- **Angelovich Mahmud posho 1472 1474 serb**
- **Gedik Ahmad posho 1474 1477 vizantiyali yoki serb**
- **Karamonli Mehmed posho 1477 1481 turk**
- **Isxoq posho 1481 1482 serb yoki bosniyali**
- **Dovud posho 1482 1497 alban**
- **Xarsakli Ahmad posho 1497 1498 bosniyali**
- **Chandarlı Ibrohim posho 1498 1499 turk**
- **Masih posho 1499 1501 yunon**

- **XVI asrda**

- **Hadim Ali posho 1501 1503 serb**
- **Xarsakli Ahmad posho 1503 1506 bosniyali**
- **Hadim Ali posho 1506 1511 serb**
- **Xarsakli Ahmad posho 1511 1511 bosniyali**
- **Xoja Mustafo posho 1511 1512 yunon**
- **Xarsakli Ahmad posho 1512 1514 bosniyali**
- **Dukako‘g‘li Ahmad posho 1514 1515 alban**
- **Xarsakli Ahmad posho 1515 1516 bosniyali**
- **Hadim Sinon posho 1516 1517 bosniyali**
- **Yunus posho 1517 1518 serb**



- Pi
  ri

Mehmed posho 1518 1523 turk

- Pargalı Ibrohim Posho 1523 1536
  yunon

- **Ayas Mehmed posho 1536 1539 alban**
- **Hoji Lutfi posho 1539 1541 alban**
- **Hadim Sulaymon posho 1541 1544 turk**
- **Damat Rustam posho 1544 1553 xorvat**
- **Qora Ahmad posho 1553 1555 alban**
- **Damat Rustam posho 1555 1561 xorvat**
- **Semiz Ali posho 1561 1565 serb**
- **Sokollu Mehmed posho 1565 1574 serb**
- **Lala Mustafo posho 1574 1574 alban**
- **Sokollu Mehmed posho 1574 1580 bosniyali**
- **Xoja Sinon posho 1580 1582 alban**
- **Kanijali Siyovush posho 1582 1584 xorvat**
- **O‘zdemiro‘g‘li Usmon posho 1584 1585 mamluk**

- Hadim Masih posho 1585 1586 turk
- Kanijali Siyovush posho 1586 1589
  xorvat yoki venger
- Xoja Sinon posho 1589 1591 alban
- Sardor Farhod posho 1591 1592 alban
- Kanijali Siyovush posho 1592 1593
  xorvat yoki venger
- Xoja Sinon posho 1593 1595 alban
- Sardor Farhod posho 1595 1595 alban
- Xoja Sinon posho 1595 1595 alban
- Lala Mehmet posho 1595 1595 turk
- Xoja Sinon posho 1595 1596 alban
- Damat Ibrohim posho 1596 1596
  serb
- Yusuf Sinon posho 1596 1596
  genuyalik
- Damat Ibrohim posho 1596 1597
  serb
- Hadim Hasan posho 1597 1598 gurji

- **Jarroh Mehmed posho 1598 1599 turk**
- **Damat Ibrohim posho 1599 1601 serb**
    - **XVII asrda**
- **Yemishchi Hasan posho 1601 1603 alban**
- **Malkocho‘g‘li Hasan posho 1603 1604 turk**
- **Lala Mehmed posho 1604 1606 bosniyali**
- **Darvish Mehmed posho 1606 1606 bosniyali**
- **Kuyyuju Mehmed posho 1606 1611 xorvat**
- **Gumuljineli Damat Nasuh posho 1611 1614 alban**
- **Qora Mehmed posho 1614 1616 turk**
- **Damat Halil posho 1616 1619 armani**
- **Qora Mehmed posho 1619 1619 turk**

- **Guzelji Ali posho 1619 1621 turk**
- **Oxrili Husayn posho 1621 1621 alban**
- **Dilovar posho 1621 1622 xorvat**
- **Qora Dovud posho 1622 1622 bosniyali**
- **Miri Husayn posho 1622 1622 alban**
- **Lefkeli Mehmed posho 1622 1622 turk**
- **Gurju Mehmed posho 1622 1623 gurji**
- **Miri Husayn posho 1623 1623 alban**
- **Kemankesh Qora Ali posho 1623 1624 turk**
- **Cherkes Mehmed Ali posho 1624 1625 cherkes**
- **Hafiz Ahmad posho 1625 1626 turk**
- **Damat Halil posho 1626 1628 armani**
- **G‘oziy Qora Akram posho 1628 1631 bosniyali**
- **Hafiz Ahmad posho 1631 1632 turk**

- **Topal Rajab posho 1632 1632 bosniyali**
- **Tovoniyassi Mehmed posho 1632 1637 alban**
- **Bayram posho 1637 1638 turk**
- **Tayyor Mehmed posho 1638 1638 turk**
- **Kemankesh Qora Mustafo posho 1638 1644 alban**
- **Sultonzoda Semiz Mehmed posho 1644 1645 turk**
- **Nevesinli Solih posho 1645 1647 bosniyali**
- **Qora Muso posho 1647 1647 turk**
- **Xazorpora Ahmad posho 1647 1648 yunon**
- **Sofu Mehmed posho 1648 1649 turk**
- **Qora Dev Murod posho 1649 1651 alban**
- **Melek Ahmad posho 1651 1651 abxaz**

- **Abaza Siyovush posho 1651 1651 abaz**
- **Gurji Mehmed posho 1651 1652 gurji**
- **Tarxunchi Ahmad posho 1652 1653 alban**
- **Xoja Darvish Mehmed posho 1653 1654 cherkes**
- **Ipshiri Mustafo posho 1654 1655 abaz**
- **Qora Dev Murod posho 1655 1655 alban**
- **Armani Sulaymon posho 1655 1656 armani**
- **G‘oziy Husayn posho 1656 1656 turk**
- **Zarnozin Mustafo posho 1656 1656 alban**
- **Abaza Siyovush posho 1656 1656 abaz**
- **Boynuyarali Mehmed posho 1656 1656 turk**

- Kiprli Mehmed posho 1656 1661 alban
- Fozil Ahmad posho 1661 1676 alban
- Merzifonli Qora Mustafo posho 1676 1683 turk
- Qora Ibrohim posho 1683 1685 bosniyali
- Sari Sulaymon posho 1685 1687 bosniyali
- Abaza Siyovush posho 1687 1688 abaz
- Ayyashli Ismoil posho 1688 1688 turk
- Bakir Mustafo posho 1688 1689 turk
- Kiprli Fozil Mustafo posho 1689 1691 turk
- Aravachi Ali posho 1691 1692 alban
- Merzifonli Hoji Ali posho 1692 1693 turk
- Bozoklu Mustafo posho 1693 1694 turk

- **Surmali Ali posho 1694 1695 yunon**
- **Elmas Mehmed posho 1695 1697 turk**
- **Kiprli Husayn posho 1697 1702 turk**
    - **XVIII asrda**
- **Daltabon Mustafo posho 1702 1703 serb**
- **Rumiy Mehmed posho 1703 1703 turk**
- **Kavanoz Ahmad posho 1703 1703 rus**
- **Damat Hasan posho 1703 1704 turk**
- **Qalayliko‘z Hoji Ahmad posho 1704 1704**
- **Boltachi Mehmed posho 1704 1706 turk**
- **Chorlulu Damat Ali posho 1706 1710 turk**
- **Kiprli No‘mon posho 1710 1710 turk**
- **Boltachi Mehmed posho 1710 1711 turk**

- **Og‘a Yusuf posho 1711 1712 gurji**
- **Silohdor Sulaymon posho 1712 1713 abaz**
- **Xoja Ibrohim posho 1713 1713 turk**
- **Silohdor Damat Ali posho 1713 1716 turk**
- **Hoji Halil posho 1716 1717 alban**
- **Nishonchi Mehmed posho 1717 1718 turk**
- **Yangishaharli Damat Ibrohim posho 1718 1730 turk**
- **Silohdor Damat Mehmed posho 1730 1731 turk**
- **Kabakulak Ibrohim posho 1731 1731 turk**
- **Topal Usmon posho 1731 1732 turk**
- **Hakimo‘g‘li Ali posho 1732 1735 turk**
- **Gurju Ismoil posho 1735 1735 gurji**
- **Silohdor Said Mehmed posho 1736 1737 turk**

- **Muhsinzoda Abdulla posho 1737 1737 turk**
- **Yagan Mehmed posho 1737 1739 turk**
- **Hoji Ivaz Mehmed posho 1739 1740 alban**
- **Nishonchi Hoji Ahmad posho 1740 1742 turk**
- **Hakimo‘g‘li Ali posho 1742 1742 turk**
- **Said Hasan posho 1742 1746 turk**
- **Tiryaki Hoji Mehmed posho 1746 1747 turk**
- **Said Abdulla posho 1747 1750 turk**
- **Devetdor Mehmed posho 1750 1752 turk**
- **Bahir Mustafo posho 1752 1755 turk**
- **Hakimo‘g‘li Ali posho 1755 1755 turk**
- **Noiliy Abdulla posho 1755 1755 turk**
- **Nishonchi Ali posho 1755 1755 alban**

- **Yigirmasakkizzoda Mehmed Said posho 1755 1756 turk**
- **Bahir Mustafo posho 1756 1756 turk**
- **Xoja Mehmed Rahib posho 1757 1763 turk**
- **Tevkiy Hamza Hamid posho 1763 1763 turk**
- **Bahir Mustafo posho 1763 1765 turk**
- **Muhsinzoda Mehmed posho 1765 1768 turk**
- **Silohdor Hamza Mohir posho 1768 1768 turk**
- **Mehmed Amin posho 1768 1769 turk**
- **Moldovanji Ali posho 1769 1769 turk**
- **Ivazzoda Halil posho 1769 1770 turk**
- **Silohdor Mehmed posho 1770 1771 turk**
- **Muhsinzoda Mehmed posho 1771 1773 turk**
- **Izzat Mehmed posho 1773 1775 turk**

- **Morali Darvish Mehmed posho 1775 1777 turk**
- **Darendeli Mehmed posho 1777 1778 turk**
- **Kalafat Mehmed posho 1778 1779 bolgar**
- **Silohdor Said Mehmed posho 1779 1781 turk**
- **Izzat Mehmed posho 1781 1782 turk**
- **Yagan Hoji Mehmed posho 1782 1782 turk**
- **Halil Hamid posho 1782 1785 turk**
- **Shahin Ali posho 1785 1786 gurji**
- **Xoja Yusuf posho 1786 1789 gurji**
- **Mayit Hasan posho 1789 1790 cherkes**
- **Jazoirli G‘oziy Hasan posho 1790 1790 turk**
- **Chelebiyzoda Sharif Hasan posho 1790 1791 turk**

- Xoja Yusuf posho 1791 1792 gurji
- Damat Malak Mehmed posho 1792 1794 bosniyali
- Izzat Mehmed posho 1794 1798 turk
- Yusuf Ziyovuddin posho 1798 1805 turk

- XIX asrda

- Hafiz Ismoil posho 1805 1806 turk
- Ibrohim Hilmiy posho 1806 1807 turk
- Chelebiy Mustafo posho 1807 1808 turk
- Alamdar Mustafo posho 1808 1808 turk
- Chavushboshi Memish posho 1808 1808 alban
- Charxchi Ali posho 1808 1809 turk
- Yusuf Ziyovuddin posho 1809 1811 turk
- Laz Aziz Ahmad posho 1811 1812 laz

- **Xurshid Ahmad posho 1812 1815 turk**
- **Mehmed Amin Rauf posho 1815 1818 turk**
- **Burdurli Darvish Mehmed posho 1818 1820 turk**
- **Sayid Ali posho 1820 1821 turk**
- **Benderli Ali posho 1821 1821 turk**
- **Xoja Solih posho 1821 1822 turk**
- **Deli Abdulla posho 1822 1823 turk**
- **Turnonchizoda Silohdor Ali posho 1823 1823 turk**
- **Mehmed Said G‘olib posho 1823 1824 turk**
- **Benderli Mehmed Salim Sirri posho 1824 1828 turk**
- **Darendeli Topal Izzat Mehmed posho 1828 1829 turk**
- **Rashid Mehmed posho 1829 1833 turk**

- **Mehmed Amin Rauf posho 1833 1839 turk**
- **Mehmed Xusrav posho 1839 1841 turk**
- **Mehmed Amin Rauf posho 1841 1841 turk**
- **Darendeli Topal Izzat Mehmed posho 1841 1842 turk**
- **Mehmed Amin Rauf posho 1842 1846 turk**
- **Mustafo Rashid posho 1846 1848 turk**
- **Ibrohim Sorim posho 1848 1848 turk**
- **Mustafo Rashid posho 1848 1852 turk**
- **Mehmed Amin Rauf posho 1852 1852 turk**
- **Mustafo Rashid posho 1852 1852 turk**

- Mehmed Amin Ali posho 1852 1852 turk
- Damat Mehmed Ali posho 1852 1853 gurji
- Giritli Mustafo Noiliy posho 1853 1854 alban
- Kibrisli Mehmed Amin posho 1854 1854 turk
- Mustafo Rashid posho 1854 1855 turk
- Mehmed Amin Ali posho 1855 1856 turk
- Mustafo Rashid posho 1856 1857 turk
- Giritli Mustafo Noiliy posho 1857 1857 alban
- Mustafo Rashid posho 1857 1858 turk
- Mehmed Amin Ali posho 1858 1859 turk

- **Kibrisli Mehmed Amin posho 1859 1859 turk**
- **Mutarjim Mehmed Rushdiy posho 1859 1860 turk**
- **Kibrisli Mehmed Amin posho 1860 1861 turk**
- **Mehmed Amin Ali posho 1861 1861 turk**
- **Mehmed Amin Fuad posho 1861 1863 turk**
- **Yusuf Komil posho 1863 1863 turk**
- **Mehmed Amin Fuad posho 1863 1866 turk**
- **Mutarjim Mehmed Rushdiy posho 1866 1867 turk**
- **Mehmed Amin Ali posho 1867 1871 turk**
- **Mahmud Nadim posho 1871 1872 turk**
- **Midihat posho 1872 1872 turk**

- **Mutarjim Mehmed Rushdiy posho 1872 1873 turk**
- **Sakkizli Ahmad Asad posho 1873 1873 turk**
- **Shirvonli Mehmed Rushdiy posho 1873 1874 turk**
- **Husayn Avniy posho 1874 1875 turk**
- **Sakkizli Ahmad Asad posho 1875 1875 turk**
- **Mahmud Nadim posho 1875 1876 turk**
- **Mutarjim Mehmed Rushdiy posho 1876 1876 turk**
- **Midihat posho 1876 1877 turk**
- **Ibrohim Adham posho 1877 1878 yunon**
- **Ahmad Hamdiy posho 1878 1878 turk**
- **Ahmad Vofiq posho 1878 1878 turk**

- **Mehmed Sodiq posho 1878 1878 turk**
- **Mutarjim Mehmed Rushdiy posho 1878 1878 turk**
- **Mehmed Savfat posho 1878 1878 turk**
- **Tunusli Xayriddin posho 1878 1879 abxaz**
- **Ahmad Orifiy posho 1879 1879 turk**
- **Kichik Mehmed Said posho 1879 1880 turk**
- **Mehmed Kadriy posho 1880 1880 turk**
- **Kichik Mehmed Said posho 1880 1882 turk**
- **Abdurahmon Nuriddin posho 1882 1882 turk**
- **Kichik Mehmed Said posho 1882 1882 turk**
- **Ahmad Vofiq posho 1882 1882 turk**

- Kichik Mehmed Said posho 1882 1885 turk
- Mehmed Komil posho 1885 1891 turk
- Ahmad Javod posho 1891 1895 turk
- Kichik Mehmed Said posho 1895 1895 turk
- Mehmed Komil posho 1895 1895 turk
- Halil Rifat posho 1895 1901 turk
    - XX asrda
- Kichik Mehmed Said posho 13.01.1901 15.01.1903 turk
- Mehmed Farid posho 15.01.1903 22.07.1908 alban
- Kichik Mehmed Said posho 22.07.1908 6.08.1908 turk
- Mehmed Komil posho 6.08.1908 28.02.1909 turk

- **Ahmad Tavfiq posho 31.03.1909 1.05.1909 turk**
- **Husayn Xilmiy posho 1.05.1909 28.12.1909 turk**
- **Ibrohim Haqqul posho 12.01.1910 29.09.1911 turk**
- **Kichik Mehmed Said posho 4.10.1911 17.07.1912 turk**
- **Ahmad Muxtor posho 22.07.1912 29.10.1912 turk**
- **Mehmed Komil posho 30.10.1912 23.01.1913 turk**
- **Mahmud Shavkat posho 23.01.1913 11.06.1913 turk**
- **Said Halim posho 12.06.1913 3.02.1917 arab**
- **Mehmed Tal’at posho 4.02.1917 8.10.1918 turk**
- **Ahmad Izzat posho 14.10.1918 8.11.1918 turk**

- **Ahmad Tavfiq Okday posho 11.11.1918 4.03.1919 turk**
- **Damat Mehmed Farid posho 4.03.1919 4.10.1919 serb**
- **Ali Rizo posho 6.10.1919 2.03.1920 turk**
- **Solih Xulusiy posho 8.03.1920 2.04.1920 turk**
- **Damat Mehmed Farid posho 5.04.1920 18.10.1920 serb**
- **Ahmad Tavfiq Okday posho 21.10.1920 17.10.1922 turk**